

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisi to'g'risida axborot



15-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yilda mamlakatnijitimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallanganiqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisi bo'lib o'tdi.

Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ma'ruza qildi.



Davlatimiz rahbarining nutqida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davometayotganligiga qaramay, 2015-yilda iqtisodiy dasturning eng muhimyo'nalishlari va ustuvor vazifalari hamda chuqur tarkibiy o'zgartirishlar,xususiy mulk va kichik biznes manfaatlarini ishonchli himoya qilishnita'minlash bo'yicha har tomonlama puxta Dasturning izchil va tizimli amalgaoshirilishi natijasida iqtisodiyot o'sishining barqaror va yuqori sur'atlariqahamda makroiqtisodiy muvozanatga erishilganligi qayd etildi.

Nufuzli xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar va ilmiy markazlar tomonidanyuqori baholanayotgan yutuqlar va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishistiqbollari butun jahonda "o'zbek modeli" sifatida e'tirof etilib, butanlangan rivojlanish strategiyasining yuqori samaradorligi va muvaffaqiyatiniyana bir bor tasdiqlagani alohida qayd etildi. Nufuzli Jalon iqtisodiy forumireytingiga muvofiq O'zbekiston 2014-2015-yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017-yillarda iqtisodiy o'sish prognozlari bo'yicha dunyodagi eng tezrivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgan.

2015-yil yakunlari bo'yicha mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 8 foizga,

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foizga, qishloq xo'jaligimahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizgaoshdi. Davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz miqdoridaprofitsit bilan ijro etildi. Tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldo ta'minlandi.Inflatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichlaridan oshmadi.

Mulkchilik tarkibini tubdan o'zgartirish, davlatning iqtisodiyotdagisihtirokini qisqartirish, korporativ boshqaruvning prinsiplari vayondashuvlarini o'zgartirish bo'yicha tizimli choratadbirlar, keng ko'lamliishlar amalga oshirilmoqda. Barcha aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruvningzamonaviy namunaviy tuzilmasi joriy etildi.

Xususiy mulkdorlar va tadbirkorlarning kafolatlarini kuchaytirish va ularning qonuniy huquqlarini himoya qilish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini "yagonadarcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatadigan Yagona markazlar orqali tashkil etish va amalga oshirishni soddalashtirish va yengillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarning turkumi qabul qilindi. Amalgaosho shirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznesning mamlakat yalpiichki mahsulotidagi ulushi 56,7 foizga yetdi yoki 2000-yil bilan taqqoslaganda 1,8 baravar o'sdi.

Tarkibiy o'zgartirishlar, tarmoqlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha chora-tadbirlar va investitsiya loyihalari ning faolamalga oshirilishi, shuningdek, zamonaviy infratuzilmaning shakllantirilishi 15,8 milliard AQSh dollari miqdorida yoki 2014-yildagiga qaraganda 9,5 foizko'p investitsiyalar o'zlashtirilishini ta'minladi. Bunda barcha investitsiyalarning 3,3 milliard dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'inixorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri chetel investitsiyalaridir. Yuqori texnologiyali tayyor mahsulotlar ishlabchiqarishga yo'naltirilgan tarmoqlar jadal rivojlanishga ega bo'ldi. 158 tayirik ishlab chiqarish obyekti foydalanishga topshirildi.

Agrar sektorda chuqur tarkibiy o'zgartirishlar yuz bermoqda. Mo'l hosil – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g'alla va 3 million 350 ming tonnadan ortiq Paxta xomashyosi yetishtirildi va yig'ib olindi. Meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik, shuningdek, ularning mahsulotlarini sanoat yo'li bilan qayta ishlash jadal sur'atlarda rivojlanmoqda.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasining jadal rivojlanishi ta'minlandi. Pullik xizmatlar hajmi 10,8 foizga, chakana tovar aylanmasi 15 foizdan ziyodga o'sdi. Yalpi ichki mahsulotda xizmatlar sohasi ulushi 2010-yildagi 49 foiz o'rniiga 54,5 foizga yetdi.

Bank tizimini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuvi darajasinioshirish va investitsiya faolligini kengaytirish ta'minlandi. Bank tiziminingumumiyligi kapitali 2014-yilga nisbatan 23,3 foizga ko'paydi va 7,8 trillion so'mgayetdi.

Iqtisodiyotning va xizmatlar sohasining barqaror yuqori o'sish sur'atlari aholidaromadlarini, insonlar turmush darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkamasos yaratdi. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya vastipendiyalar miqdori 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi. Tadbirkorlik faoliyatidan daromadlar ulushi 2010-yildagi 47,1 foizga qaraganda 52 foizga oshdi. 980 mingtadan ortiq ish o'rinnari tashkiletildi, ulardan 60 foizdan ziyodi qishloq joylardadir, kasb-hunarkollejlarining 480 mingdan ortiq bitiruvchilari ishga joylashtirildi.

"Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturining barcha tadbirlarini amalgaoshirish ta'minlandi. Davlat dasturi tadbirlarini moliyalashtirishga barchamanbalar hisobidan 2 trillion 246 milliard so'm va 225 million dollardan ortiqmablag' yo'naltirildi.

Mamlakatimiz Prezidenti o'z ma'rzasida mavjud hal etilmagan muammolarnibatafsil va har tomonlama tahlil qilishga alohida e'tiborni qaratdi hamda islohotlarni davom ettirish, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish vaiqtisodiyotni diversifikatsiyalashning dasturiy vazifalariga, shuningdek, uning 2016-yilda eng muhim ustuvor yo'nalishlariga batafsil to'xtalib o'tdi.

Hukumat, vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchihokimiyat organlari rahbarlari oldiga boshlab yuborilgan tizimli demokratik islohotlar va mamlakatni modernizatsiyalash, eng avvalo, sanoatda va qishloq xo'jaligida chuqr tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishni davomettirishga, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashga, xususiy mulk, tadbirkorlikva kichik biznesni ildam rivojlantirish va manfaatini himoyalashga, muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini,

ijtimoiy sohanijadal rivojlantirishga, aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirishgayo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishyuzasidan aniq vazifalar qo'yildi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini tubdan oshirish, eksport qiluvchikorxonalarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, kichik biznes subyektlari vafermer xo'jaliklarining eksportdagagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirishbo'yicha aniq vazifalar belgilandi. Iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiyat texnologiyalarini keng joriy etish hamda "Elektron hukumat" tizimini yaratishnitubdan tezlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar kompleksi belgilandi.

Davlat, xo'jalik boshqaruvi va joylardagi ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarininge'tibori iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, investitsiyalar kiritish va obyektlarni ishga tushirishning joriy yilga belgilangan prognozko'rsatkichlariga so'zsiz erishish uchun barcha mavjud imkoniyatlar vazaxiralarni ishga tushirish, shuningdek, ishlab chiqarishni uzluksiz texnologikyangilash, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini muvozanatli hamda kompleksrivojlantirish zarurligiga qaratildi.

Bu yil Sog'lom ona va bola yili deb e'lon qilinganligi munosabati bilanushbu yil uchun mo'ljallangan maqsadlar va vazifalarga erishish bo'yichadasturiy chora-tadbirlarni, shu jumladan, oila, onalik va bolalikni muhofazaqilish tizimini kuchaytirish, perinatal va skrining markazlari, patronajxizmatlarining moddiy-texnika bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash,yosh onalar va bolalarni parvarish qilish darajasi va sifatini oshirish,oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni yaratish chora-tadbirlari amalgaoshirilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Majlisda Bosh vazir o'rinnbosarlari, vazirliklar, idoralar, xo'jalikbirlashmalari rahbarlari hamda viloyatlar hokimlarining hisoboti eshitildi.Muhokama qilish yakunlari bo'yicha

2016-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiyrivojlantirish dasturining eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalari amalgaoshirilishini ta'minlashga doir amaliy chora-tadbirlar belgilangan respublikaHukumati qarori qabul qilindi.

[O'zA](#)